



**ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA XARAJATLARNI
BOSHQARISH VA TANNARXNI PASAYTIRISHNING ZAMONAVIY
USULLARI.**

Hamroyeva Feruza Azizjon qizi

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
“Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
fhamroyeva916@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni boshqarish tizimi, mahsulot tannarxini shakllantirish omillari hamda uni pasaytirishning kamaytirish bo'yicha mavjud ilmiy yondashuvlar va amaliy mexanizmlar yoritildi. Tadqiqot davomida xarajatlarni rejalashtirish, nazorat qilish va optimallashtirish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqotda xo'jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Mahsulot tannarxi, tannarxga ta'sir etuvchi omillar, xarajatlar, xomashyo, ish haqi, norma va normativ, tannarxni kamaytishga qaratilgan strategiya, xarajatlar turlari.

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ЗАТРАТАМИ И СНИЖЕНИЯ
СЕБЕСТОИМОСТИ НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.**

Хамроева Феруза Азизджоновна

Самаркандский институт агроинноваций и исследований
Студент 3-го курса по направлению «Бухгалтерский учёт и аудит»
fhamroyeva916@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассмотрена система управления затратами на производственных предприятиях, факторы формирования себестоимости продукции, а также существующие научные подходы и практические механизмы её снижения. В ходе исследования изучается влияние механизмов планирования, контроля и оптимизации затрат на экономическую эффективность. Кроме того, в исследовании проанализированы факторы, влияющие на себестоимость продукции в хозяйствующих субъектах, и разработаны предложения и рекомендации, направленные на снижение затрат.

Ключевые слова: себестоимость продукции, факторы, влияющие на себестоимость, затраты, сырьё, заработная плата, нормы и нормативы, стратегия снижения себестоимости, виды затрат.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

MODERN METHODS OF COST MANAGEMENT AND COST
REDUCTION IN MANUFACTURING ENTERPRISES.

Hamroeva Feruza Azizjon qizi

Samarkand Agroiinnovations and Research University

3rd-year student of the "Accounting and Auditing" program.

fhamroyeva916@gmail.com

Annotation: *This article examines the cost management system in manufacturing enterprises, the factors influencing the formation of product cost, as well as existing scientific approaches and practical mechanisms for reducing costs. In the course of the study, the impact of cost planning, control, and optimization mechanisms on economic efficiency is analyzed. In addition, the study analyzes the factors affecting product cost in business entities and develops proposals and recommendations aimed at reducing costs.*

Keywords: *Product cost, factors affecting cost, expenses, raw materials, wages, norms and standards, cost reduction strategy, types of costs.*


Kirish

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Raqobatning kuchayishi, resurslar narxining oshib borishi hamda texnologik yangilanishlar korxonalarni ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali tashkil etishga undamoqda. Bu jarayonda xarajatlarni to'g'ri hisobga olish, tahlil qilish va boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayiqsa sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish orqali foyda va rentabellik darajasini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mahsulot tannarxi—bu uning ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan umumiy xarajatlar yig'indisidir. Shu boisda tannarxni pulda tahlil qilish, xarajatlar tarkibini aniqlash va ularni samarali boshqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Oxirgi yillarda texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilishi, xom-ashyo va energiya resurslaridan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish kabi omillar mahsulot tannarxini kamaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, normativ xarajatlarni tahlil qilish, ularni optimallashtirish va tejamkorlik omillarini aniqlash bugungi kunda har bir ishlab chiqaruvchi korxonaning ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Adabiyotlar tahlili

Tannarxni optimallashtirish, aynisa uni pasaytirish strategiyasi, har qanday ishlab chiqaruvchi korxonaning raqobatdoshligini ta'minlashda muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlarda O'zbekiston olimlaridan X. Xodjayev, I. Qurbonov, R. Salimov va boshqalar o'z ilmiy ishlarida tannarx tuzilmasini chuqur o'rganib chiqqanlar [1].





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ularning tadqiqotlarida tannax quyidagi asosiy elementlarga ajratildi: xom-ashyo va materiallar, ish haqi, energiya sarfi, amortizatsiya va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari.

Mahsulot tannarxi korxonaning iqtisodiy faoliyatini aniqlovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, uning tahlili va boshqaruvi ko'plab iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan [2]. Tannarxni kamaytirish muammosi ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liq.

A.A.Yudanov (2002) o'zining asarlarida tannarxni boshqarish korxonaning raqobatdoshligini boshqarishdagi asosiy omil sifatida talqin qilinadi [3]. U mahsulot tannarxini kamaytirishda xarajatlar markazlarini aniqlash, xarajatlarni normallashtirish va funksional xarajatlar tahliliga (ABC—Activity-Based Costing) asoslanishni tavsiya etadi.

Boshqa iqtisodchilar (S. Haydarov, T. Jo'rayev, A. Boboqulov) o'z ilmiy ishlarida tannarxini kamaytirishning amaliy yo'llari sifatida quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi [4]:

- Energiya va xom-ashyo sarfini optimallashtirish;
- Ishlab chiqarish texnologiyasini modernizatsiyalash;
- Mehnat unumdorligini oshirish;
- Ortiqcha va samarasiz xarajatlarni bartaraf etish;

Xarajatlar turlari

Mahsulot tannarxi korxona moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarini ilmiy asosda boshqarish, zamonaviy hisob va tahlil usullarini qo'llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ishlab chiqarish xarajatlari — mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq barcha sarflarning pul ifodasidir. Xarajatlar korxona faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ular foyda miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bevosita xarajatlar — bu mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan va aniq bir mahsulot birligiga bevosita biriktirib hisoblash mumkin bo'lgan xarajatlardir. Ular quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- xomashyo va materiallar
- ishchilarning ish haqi
- ishlab chiqarishda to'g'ridan-to'g'ri qatnashuvchi resurslar

2. Bilvosita xarajatlar — bu ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lsa ham, ularni aniq bitta mahsulot yoki buyurtmaga to'g'ridan-to'g'ri biriktirib bo'lmaydigan xarajatlardir. Ular odatda umumiy ishlab chiqarish yoki boshqaruv ehtiyojlari uchun qilinadi va keyinchalik maxsus usullar orqali mahsulotlarga taqsimlanadi. Bilvosita xarajatlarga quyidagilarni misol keltiramiz:

- ustama xarajatlar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- boshqaruv xarajatlari
- xizmat ko'rsatish bo'limlari xarajatlari

3. Doimiy xarajatlar — bu ishlab chiqarish hajmi o'zgarishidan qat'i nazar, ma'lum davr davomida deyarli o'zgarmay qoladigan xarajatlardir. Ya'ni korxona ko'p ishlab chiqarsin yoki kam-bu xarajatlar baribir to'lanadi. Masalan:

- ijara to'lovi
- ma'muriy xarajatlar
- amortizatsiya

4. O'zgaruvchan xarajatlar — bu ishlab chiqarish hajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan va mahsulot miqdori oshsa ko'payadigan, kamaysa qisqaradigan xarajatlardir. Ya'ni qancha ko'p ishlab chiqarilsa, shuncha ko'p sarf bo'ladi. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- xomashyo
- energiya
- ishlab chiqarish hajmiga bog'liq sarflar

Muhokama va natijalar

Tadqiqot davomida mahsulot tannarxini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, ularning iqtisodiy mohiyati va korxona rentabelligiga bo'lgan ta'siri tizimli tarzda o'rganildi. Mahsulot tannarxining yuqoriligi ko'pincha ishlab chiqarish samaradorligining pastligi, resurslardan foydalanishdagi isrofgarchilik va zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi bilan bog'liq.

Tannarxning asosiy qismini, odatda, quyidagi elementlar tashkil etadi:

- Xom-ashyo va materiallar xarajatlari - 60-80%;
- Ish haqi va unga bog'liq ijtimoiy ajratmalar - 5-15%;
- Energiya sarfi - 2-10%;
- Asosiy vositalar amortizatsiyasi - 2-8%;
- Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari - 3-10%.

Bu tuzilma mahsulot turiga va ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab farq qilishi mumkin. Yuqori tannarxli ishlab chiqarishlarda, ayniqsa, xom-ashyo ulushi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tannarx darajasiga quyidagi omillar eng katta ta'sirni ko'rsatadi:

- Xom-ashyo narxi va sarfi — ta'minotdagi beqarorlik, logistika xarajatlari va resurslar isrofi mahsulot tannarxini sun'iy oshirib yuboradi;
- Texnologik daraja - zamonaviy, energiya tejamkor uskunalardan foydalanilmasligi energiya va vaqt sarfini oshiradi;
- Mehnat unumdorligi - mehnat resurslaridan samarasiz foydalanish tannarxni oshiradi, ayniqsa ish haqi ulushi yuqori bo'lsa;
- Mahsulot tannarxi ustidan nazoratning sustligi - xarajatlar hisobining noto'g'ri yuritilishi va isrofgarchilikni aniqlay olmaslik tannarxni kamaytirishga to'sqinlik qiladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Hozirgi kunda xomashyo uchun belgilangan norma va normativlarni optimallashtirish muhim vazifa sifatida har bir korxona oldida turgan asosiy maqsadlardan biri sifatida qabul qilinmoqda. Normativ va normani takomillashtirishning asosiy maqsadlari:

- resurslar isrofini kamaytirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish;
- tannarxni kamaytirish;
- mahsulot sifatini barqaror saqlash.

1-jadval

Mahsulot tannarxni kamaytirish strategiyasi yo'nalishlari

Yo'nalish	Chora-tadbirlar	Asos
Xom-ashyo sarfini ilmiy normativlar asosida optimallashtirish	- Ishlab chiqarish normalarini amaldagi ma'lumotlar asosida qayta hisoblash - Texnologik sozlamalarni doimiy monitoring qilish	Arzon xom ashyo topish qiyin, shuning uchun mavjudidan optimal foydalanish zarur
Qayta ishlash tizimidan maksimal foydalanish	- To'la-to'kis chiqindisiz ishlab chiqarishga intilish - Qayta ishlangan matolardan ikkilamchi mahsulot (masalan, texnik to'qimalar) ishlab chiqarish	Chiqindilar daromad manbasi bo'la oladi
Mahsulot assortimentini qayta tahlil qilish (Direct-costing)	- Har bir mahsulot turi bo'yicha to'liq va bevosita xarajatlarni hisoblash - Foydali mahsulot turlariga ustuvorlik berish	Sifatli lekin tannarxi yuqori mahsulotdan foyda past bo'lishi mumkin
Energiya sarfini sifatsiz texnikalarga emas, ish rejimiga moslashtirish	- Energiya yuklamasini optimal rejimda boshqarish (masalan, past yuklama vaqtlarida ishlash). - Ventilyatsiya, yoritish va yordamchi uskunalarning energiya sarfini nazorat qilish	Tejamkor texnika sifatga zarar yetkazmoqda, shuning uchun rejimni boshqarish muhim
Malakali xodimlar orqali nazoratni kuchaytirish	- Yiliga 1-2 marotaba texnologik treninglar - Xatoliklar monitoringi orqali isrofgarchiliklarni aniqlash	Avtomatlashtirish mavjud bo'lsa-da, inson omili sarf va sifatga ta'sir qiladi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ushbu strategiya oqali korxonada quyidagi natijalar kuzatilishi mumkin.

2-jadval

Strategiyadan kutilayotgan natijalar

Chora	Tannarxga ta'siri
Xom-ashyo sarfini optimallashtirish	-2.0%
Qayta ishlash tizimi kengaytirilishi	-1.5%
Mahsulot portfelini qayta tahlil qilish (Direct-costing)	+2-3% foyda o'sishi
Energiya boshqaruvi (sifatni saqlab qolgan holda)	-1.0%
Inson resurslarini malakali boshqarish	-0.5%

Korxona an'anaviy tannarx kamaytirish usullaridan foydalana olmasa-da, mavjud resurslardan maksimal foydalanish, ichki nazoratni kuchaytirish va mahsulot assortimenti bo'yicha tahlil asosida umumiy tannarxni 4-5% gacha kamaytirish, foyda marjasini esa 2-3% ga oshirish mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni tizimli boshqarish va zamonaviy kalkulyatsiya usullarini joriy etish tannarxni sezilarli darajada pasaytiradi. Raqamli boshqaruv tizimlari va aniq rejalashtirish mexanizmlari korxona rentabelligini oshiradi. Kelgusida ishlab chiqarish subyektlarida integratsiyalashgan boshqaruv hisobi tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Shuningdek, mahsulot tannarxini tahlil qilishda iqtisodiy-statistik usullar, normativ baholash va solishtirma yondashuvlar orqali aniqlangan asosiy omillarni chuqur o'rganish uni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Iqtisodiy tahlil asoslari. X. Xodjayev. "Fan va texnologiya" nashriyoti 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoniga 2-ilova.
<https://lex.uz/uz/docs/6811936>
3. Alikulov, A., Razzoqov, A., Baxriyev, M., & Sayfiyev, S. (2022). PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA PAXTA XOMASHYOSINI QAYTA ISHLASH XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. Academic research in educational sciences, (Conference), 62-68.
4. Baxriyev, M. (2024). Qishloq xo'jaligi korxonalarida kapital qo'yilmalar hisobining xususiyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(10).





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

5. Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell.

6. <https://doctorant.tsue.uz/wp-content/uploads/2024/07/Toplam-oxirgisi-11.03.%D0%90.pdf>

